

DORIXONA GIGIYENASI VA DORIXONADA YORITGANLIK HAVO  
ALMASHINUVI VA HONALARNING MIKROBLAR BILAN IFLOSGANLIGI.

*Ilmiy rahbar: Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti*

*Komunal va mehnat gigiyenasi kafedrasi asissenti:*

**Saidova Sohiba Abrorovna.**

*Farg'ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti*

*Farmatseftika fakulteti talabasi*

**Muhomova Hayotxon Sarvarjon qizi.**

**ГИГИЕНА АПТЕК И ОСВЕЩЕНИЕ АПТЕКИ ВОЗДУХООБМЕН И  
ЗАГРЯЗНЕНИЕ ПОМЕЩЕНИЙ МИКРОБАМИ**

*Научный руководитель: Ферганский медицинский институт общественного  
здравоохранения*

*Ассистент кафедры коммунальной и трудовой гигиены:*

**Саидова Сохиба Аброровна.**

*Ферганский медицинский институт общественного здравоохранения*

*Студент фармацевтического факультета*

**Мухомова Хайотхан Сарварджон, дочь**

**PHARMACY HYGIENE AND PHARMACY LIGHTING AIR EXCHANGE AND  
ROOM CONTAMINATION WITH MICROBES**

*Scientific supervisor: Fergana Public Health Medical Institute*

*Assistant of the Department of Communal and Labor Hygiene:*

**Saidova Sohiba Abrorovna.**

*Fergana Public Health Medical Institute*

*Student of the Faculty of Pharmacy*

**Muhomova Hayotkhan Sarvarjon's daughter.**

*Annotatsiya: Bugini kundagi dorixonalar va xodimlar gigiyenasini o'rganish shunga doir qarorlar bilan tanishish dorixona yoritilganligi tekshirish, havoni mikroblar bilan zararlanishini oldini olish.*

*Kalit so'zlar: dorixona, gigiyena, qaror va buyruqlar, sifatsiz dori vositalari, dorixona yoritilganligi, dorixonaning mikroblar bilan ifloslanganligi o'rganish.*

*Аннотация: Изучить сегодня гигиену аптек и сотрудников, ознакомиться с соответствующими решениями, проверить, освещена ли аптека, не допустить загрязнения воздуха микробами.*

**Ключевые слова:** аптека, гигиена, решения и распоряжения, некачественные лекарственные средства, освещение аптеки, исследование микробной обсемененности аптеки.

**Abstract:** To study the hygiene of pharmacies and employees today, to familiarize with the relevant decisions, to check whether the pharmacy is lit, to prevent the air from being contaminated by microbes.

**Key words:** pharmacy, hygiene, decisions and orders, low-quality drugs, pharmacy lighting, pharmacy microbial contamination study.

#### **Kirish:**

Dorixona yoki apteka — dori vositalarini tayyorlash, qadoqlash, ularning sifatini nazorat qilish hamda tayyor dori vositalari, tibbiy buyumlar, sanitariya va gigiyena ashyolari, ma'danli suvlar, davolash-kosmetika mahsulotlarini saqlaydigan va sotadigan tibbiyot muassasasi. Dorixonada to'satdan kasal bo'lib qolgan yoki baxtsiz hodisaga uchragan kishilarga tez tibbiy yordam ham ko'rsatiladi.

Gigiyena- yunoncha "hugienos" so'zidan olingan bo'lib, odamlar salomatligiga tashqi muhit omillari ta'sirini o'rganadigan fan hisoblanadi. Gigiyena bir necha bo'limlardan iboratdir: Aviatsion gigiyena, harbiy gigiyena, mehnat gigiyenasi, bolalar va o'smirlar gigiyenasi, shaxsiy gigiyena, ijtimoiy gigiyena, ovqatlanish gigiyenasi, radiatsion gigiyenalar shular jumlasidandir.[1]

Dorixonaga qo'yiladigan gigiyenik talablar bilan tanishib chiqamiz.

- 1.dorixona jihozlari, xonalar ichining loyihalashga va jihozlashga qo'yiladigan gigiyenik talablar;
- 2.xonalarni tozalash, dorixona jihozlarini saqlash va avaylashga qo'yiladigan sanitariya talablari;
- 3.tozalangan suv va infeksiya uchun suvlarni qabul qilish, saqlash va jo'natishga qo'yiladigan sanitariya talablari;
- 4.dori preparatlarini aseptik sharoitda tayyorlashga qo'yiladigan gigiyenik talablar;
- 5.steril dori shakllarini tayyorlashga qo'yiladigan gigiyenik talablar.

Dorixonaning loyihalanishi va sanitar-texnik jihozlanishiga qo'yiladigan gigiyenik talablar. Dorixonalarning aholi yashash punktlarini tasdiqlangan reja asosida va detal loyihalash proektlariga binoan joylashishi kerak. Yer maydoni hajmi shahar, posyolka, qishloq aholi yashash punktlarini loyihalashtirish va qurishga asoslangan San Q va M (Sanitar qoida va me'yori) bo'limlariga muvofiq qabul qilinadi. Dorixona xonalarining tuzilishi va tarkibi kasb yo'nalishi va vazifasining loyihasini hisobga olgan holda belgilanadi.

Dorixona sig'imining hisob ko'rsatkichi yillik retseptlar soni va mahsulot ayirboshlashga bog'liq.

Katta shaharlardagi dorixonalar asosan qo'shimcha bino sifatida yoki binoning birinchi qavatiga joylashtirilib, alohida yer maydoniga ega bo'lmaydi. Uncha katta bo'lmagan qishloq aholi yashash punktlarida, ishchi posyolkalarda dorixonalar alohida binoda joylashib, dorixona alohida yer maydoniga ega bo'ladi. Dorixona binosidan tashqari yer

maydonda omborxonada, mashinalar turar joyi, germitizatsiyalangan axlatxonada va oqava suvlar o'rasi bo'lishi lozim.

Dorixonalarda havoning bakterial ifloslanish katta ahamiyatga ega hisoblanadi, chunki bu mikroblarning dori vositalariga tushishiga sabab bo'ladi. Dorivor preparatlarga tushgan mikroblar ularning fizik-kimyoviy xususiyatlarini o'zgarishiga, terapevtik faoliyatini pasayishiga, saqlash muddatini pasayishiga, kasalliklar kelib chiqishi va boshqa asoratlarga olib keladi. Mikroorganizmlarning dori vositalariga tushish yo'llari har xil. Bular ishlab chiqarishda qo'llaniladigan xom ashyo va oraliq mahsulotlar, suv va gazlar hisoblanadi. Eng muhim manbai esa odamdur. Havo zaharlangandan keyin inson ham zaharlanadi shu boisdan zaharlanishni oldini olish zarur. Havosi zararli joylarda ishlaydiganlarga zaharlanishni oldini olish uchun ventilatsiya yaxshi ishlashi, ishchilarni maxsus korjoma va gaz niqob bilan ta'minlash zarur. Laboratoriyada zaharli moddalar bilan ishlashda zaharli birikma miqdorini muntazam tekshirib turish kerak. Etil suyuqlik va benzin bilan maxsus moslamalarda ishlash zarur.[2]

Dorixonada tabiiy yorug'likni yetarli darajada ta'minlash kerak. Oyna chegaralari ingichka bo'lishi kerak. Ta'kidlash joizki, yiliga kamida 2 marta derazalarni majburiy yuvishni hisobga olgan holda, gigiena normalari o'rnatilishi muhimdir. Savdo xonasida gigiyenik va badiiy talablarga javob beradigan lampalar bo'lishi kerak. Lampalar nafaqat yorug'lik darajasini yaratishi, balki mehmonlarning estetik ehtiyojlarini qondirishi kerak. Umumiy yoritgichlar va farmatsevtlarning umumiy yorug'lik tizimida ishlatiladigan lampalar spektriga mos keladigan provayderlar-texnologlar va farmatsevtlarning yoritgichlari bilan umumiy yoritish moslamalari o'rnatilishi kerak. Aks holda, bo'yalgan soyalar paydo bo'lishi mumkin, bu esa ishlashni qiyinlashtiradi, tez charchoqqa olib keladi, mehnat unumdorligini pasaytiradi. Havoning inson salomatligi uchun ahamiyati juda katta.

#### **Mavzuga oid adabiyotlar sharxi:**

Dorixonada xodimlari uchun sanitar-gigiyenik talablarni ko'rib chiqamiz.

Dorixonada xodimlari uchun sanitar-gigiyenik talablar O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining "Dorixonalar uchun sanitariya qoidalari va ularning gigiyenik me'yorlari va jixozlariga qo'yiladigan talablar" (SanPin R.Uz № 0337-16)da keltirilgan. Unga ko'ra xodimlari quyidagi qoidalarga amal qilishlari kerak:

-dorixonada xodimlari ishga kelganda poyafzalini va ustki kiyimlarini almashtirishi zarur;

-ish boshlashdan avval xodim qo'llarini O'zbekiston Respublikasi

Sog'liqni saqlash vazirligining "Dorixonalar uchun sanitariya qoidalari va ularning gigiyenik me'yorlari va jixozlariga qo'yiladigan talablar" (SanPin R.Uz № 0337-16)ning 1-ilovasiga mos ravishda yuvishlari kerak;

-hojatxonaga kirishdan avval ish

kiyimi yechilishi va tashrifdan so'ng qo'llarni yuvish va dezinfeksiya talab qilinadi;

-dorixonadagi ish kiyimi va poyafzalida tashqariga chiqishi taqiqlanadi.

Gippokrat bundan juda ko'p yillar ilgari "bizning salomatligimiz va kasalliklarimiz bizni o'rab turgan tashqi muhit-havo, suv, tuproq kabilarning xarakteriga bog'liq" degan ekan.[3]

Abu Ali ibn Sino aytgan edilar "agar dunyoda zang va g'ubor bo'lmaganda edi inson 1000yil yashagan bo'lar edi".Huddi shuningdek havoni tozaligi biz insonlar uchun zarur. Chunki toza havo tanga davo hisoblanadi. Toza havoda kasalliklar ham kam bo'ladi.Havoning inson salomatligi uchun ahamiyati g'oyat katta. Atmosfera havosining asosiy tarkibiy qismi quyidagicha: azot (78%), kislorod (21% atrofida), uglerod (IV) oksid (0,03-0,04%), suv bug'lari, inert gazlar, ozon, vodorod peroksid (1% atrofida).Havoning tarkibi bo'yicha F.F. Erisman shunday degan "odam nafas oladigan havodagi kimyoviy tarkib va fizik xossalarning o'zgarishi uning organizmidagi garmonik muvozanatni, ya'ni salomatligini osongina buzishi mumkin"[4]

Afsuski hozirgi kunda havoning iflosligi bo'yicha O'zbekiston ya'ni Toshkent birinchi o'rinda turibdi, bunga sabab esa katta katta korxonalarining gigiyenaga amal qilmay ishlayotganligi, mashinalardan chiqayotgan zaharli gazlar hisoblanadi.Ishlab chiqarish korxonalari sanitariya gigiyena qoidalariga amal qilib ishlasa uning xodimlari ham shu qoidalarga amal qilib ishlasa maqsadga muvofiq bo'ladi.Sanoat chiqindilarini qayta ishlash hamda chang va gazlarni ushlab qolish xususiyatlari bilan farq qiluvchi tozalash inshootlari yordamida tozalashni ko'zda tutadi. Ularga quruq mexanik chang ushlagichlar, filtrlar va ho'l usulda tozalash apparatlari kiradi.Ushbu apparatlar bilan ishlansa bu muammolardan halos bo'lishimiz osonroq bo'ladi deb o'ylayman.Havoning tozaligiga davlatimiz ham bee'tibor emas qonunlardan ko'rinib turibdi desak mubolag'a bo'lmaydi 2001-yil 6-dekabrda O'zbekiston Respublikasining "Chiqindilar" to'g'risidagi qonuni qabul qilingan. Ushbu qonunda respublika hududida chiqindilardan foydalanish, ularni qayta ishlash, eksport qilish tartibi, bu borada korxonalar va tashkilotlarning huquq va majburiyatlari o'z ifodasini topgan.[5]

1996-yil 27-dekabrda O'zbekiston Respublikasining "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida" gi qonuni qabul qilingan. Qonun 30 ta moddadan iborat bo'lib, atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari, fuqarolarning majburiyatlari, standartlar va me'yoriy hujjatlar, havo muhitiga zarar yetkazganlik uchun javobgarlik kabi moddalar mavjud bo'lib ushbu qonun tabiatni muhofaza qilishga yordam beradi.[5]

Dorixonada tabiiy yorug'likning etarli darajada ta'minlashi kerak oyna chegaralari ingichka bo'lishi kerak. Ta'kidlash joizki, yiliga kamida 2 marta derazalarni majburiy yuvishni hisobga olgan holda, gigiyena qoidalariga rioya qilinishi zarur.Bundan tashqari, dorixonalar xodimlarining muvaffaqiyatli ishlashi uchun rangli gatlarda e'tibor bilan tanlanishi kerak. Atrofdagi buyumlar va jihozlarning rangi juda xilma-xil bo'lsa, dorixonalar ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan dorixonalar xodimlarining ko'zlari juda charchaganligi aniqlangan. Oylik va o'tkir rang mehnatning hissiy holatiga salbiy ta'sir qiladi. Bundan tashqari, rangni tanlash va dorixonalarda sanitariya va gigiyena qoidalariga amal qilish katta ahamiyatga egadir.

#### **Tadqiqot metodologiyasi:**

Aptekalarda havoning bakterial ifloslanishi mijozlar va ishchilar hisobiga kelib chiqadi va ular orqali dorixonaga kirgan har xil infeksiyalar va mikroblar dori vositalariga tushishiga sabab bo'ladi. Dorivor preparatlarga tushgan mikroflora uning fizik-kimyoviy xossalarning o'zgarishiga, terapevtik faolligining pasayishi, saqlash muddatining

kamayishi, kasalliklar kelib chiqishi olib keladi. Asosan bakterial ifloslanish savdo zalida, yuvish va qo'shimcha xonalarda kuzatiladi.

#### Tahlil va natijalar:

Bugungi kunda, dorixonalar sog'liqni saqlash tizimining maxsus institutlari bo'lib, aholini juda ko'p dorilar so'rab murojat qiladigan maskan. XIV-XV asrlarda dorixonalar monastirlarni qabul qildi. Cherkovni rivojlantirish va cherkovlarning buyrug'i yillarida ruhoniylar inson tanasi, shuningdek, umumiy kasalliklarga qarshi kurashish usullari, shuningdek, keng tarqalgan kasalliklarga qarshi kurash usullari haqida katta miqdorda ma'lumot olishdi. Ular lotindan bashoratli, sifatida tarjima qilingan "Santexnika" atamasidan foydalanish bilan tanishdilar va nizomlar qabul qildilar. Nizomlarning faoliyati kasallikning rivojlanishini kuzatish va agar kerak bo'lsa, shifokorning tashxisi bilan tanishish edi. XVIII asr oxirida farmatsevtika bozorlari deyarli har bir holatda mavjud bo'lib, dunyoning boshqa qismlari orqali tarqalishni boshladi. XXI-asrda aholining dorivor xizmatlari va tibbiy-profilaktika institutlarini dori-darmon va tibbiy mulk bilan ta'minlash dorixona muassasalari va korxonalar tomonidan ishlab chiqariladi. Bunga shaharlarda, qishloq joylarida, qishloq joylarida, fermada, filiallar va profilaktika muassasalari, filiallar, kiosklar, dorixona omborlarida joylashgan dorixonalar kiradi. Zamonaviy dorixona vaqti-vaqti bilan kasal va mutlaqo sog'lom odamlar keladigan joy hisoblanadi. Hozirgi kunda ko'p odamlar o'zlarining sog'lig'iga g'amxo'rlik qilishni boshladilar. Deyarli barchamiz o'zimizni va yaqinlarini stressdan, haddan tashqari jismoniy va ruhiy yuklardan, kambag'al ekologiyani va boshqa salbiy omillardan himoya qilishga harakat qilamiz. Dorixonalar - odamlar qiyin vaziyatda maslahat olish uchun boradigan maskan bu joy ozoda ifloslanmagan normal yoritilgan insonlarga estetik zavq beradigan bo'lishi kerak.

#### Xulosa va takliflar:

Men kelajakda dorixona ochaman va yuqoridagi qonun qoidalarga amal qilgan holda ish yuritaman. Xodimlar dorixonaga kirishlaridan oldin shaxsiy gigiyenik qonunlarga amal qilishlari kerak chunki har xil infeksiyalar dorixonaga tashqaridan xodimlar orqali kirib keladi va dorilar kimyoviy tarkibini o'zgartirib yuborishi mumkin. Kimyoviy tarkib o'zgarsa organizmga ta'siri ham o'zgarib ketadi ijobiy ta'sir o'rniga salbiy ta'sir qilishi ham hech gap emas. Havo almashinuvini ham esdan chiqarimaslik lozim. Insonlar dorixonaga kasal paytlarida kelishadi shu paytda insonlarga xushmuomalalik bilan munosabatda bo'lish lozim. Shirin so'z ham insonning psixologiyasiga ta'sir qilib tuzalishiga yordam beradi. Shu navbatda dorixona estetik zavq beradigan bo'lishi ham kerak buning uchun yoritilganlik va chiroqlarning ranglariga devorlarning ranglariga e'tibor qaratishimiz kerak. Shu ishlarni amalga oshiradigan bo'lsak insonlar nazaridagi eng foydali eng samarali dorixonalarni yuritadigan bo'lamiz.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. B.A.Dustchanov, Sh.T.Iskandarova. Umumiy Gigiyena. Toshkent "Yangi asr avlodi" 2008.



- 2.M.A. AZIZOV.Umumiy Gigiyena va Ekologiya.Cho'lpon nomidagi nashriyot-mathaa ijodiy uyi Toshkent-2016.
- 3.S.S. Esonturdiyev, M.E. Qarshiboyeva. GIGIYENA VA SANITARIYA TEKSHIRISHLAR TEXNIKASI. Toshkent-ILM ZIYO"-2007
- 4.M. A. Azizov, S. S. Solixojayev, Sh. Q. Qambarova. GIGIYENA. TOSHKENT O'QITUVCHI" 2003.
- 5.P.S.SULTONOV. EKOLOGIYA VA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH ASOSLARI.«MUSIQA» nashriyoti Toshkent 2007.
- 6.S.Mustafoev, S.O'roqov, P.Suvonov.UMUMIY EKOLOGIYA.O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, Toshkent 2006.
- 7.Q.X.Muftaydinov, H.M.Qodirov, E. Yu.Yulchiyev.EKOLOGIYA.Toshkent 2020 yil.
- 8.M. A. Azizov va b. Gigiyena. Toshkent, 2003.
- 9.E.E. Sarkisyans. Gigiyena bilan sog'liqni saqlashni tashkil qilish asoslari. Toshkent, 1988.
- 10.D.M. Bobov. Gigiyena bilan sanitariya tekshirishlar texnikasidan amaliy mashg'ulotlar. Moskva, 1981.